

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.Abdullayeva	
XX asrning 20-yillarida Buxoro me'moriy obidalarining ta'miroti masalasi	324
F.Temirov	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	328
I.Naimov	
Ahmad Donish ilmiy merosida islom huquqi masalalari.....	333
R.Rahimov	
Yevropa noshirlik uylari vujudga kelish tarixiga nazar	337
D.A.Choriyeva	
Madaniyat sohasida oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar muammosi va yechimlar.....	342
O.V.Mahmudov	
O'rta asr Yevropa tarjima markazlari tizimida Ispaniya shaharlarining o'rni: Barselona, Pamplona, Saragosa va Segoviya	353
A.A.Hakimov, B.A.Usmanov	
Amir Abdulloning Xorazm yurishi	360
N.X.Choriev	
Buxoro Amirligining janubiy hududlarida irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishi	365

ADABIYOTSHUNOSLIK

I.Yakubov	
"Modern" o'zbek romanlarida majoziy va xayoliy-parodoksal ifoda	368
P.Bakirov	
Turli tizimli tillarda nominatsentrik maqollar mazmun plani	373
I.Mannopov	
Yassaviylik adabiyoti tahlili masalasi	379
Q.Yo'ldiyev	
Anvar Obidjon lirikasida semiotik xususiyatlar	383
J.Eshonqulov	
Hayrat Buxoriy ijodida ijtimoiy hayot va muhit tanqidining badiiy xususiyati	388
T.Matyobova	
Tuyg'u va kechinmani kitobxonga "yuqtirish" mahorati.....	394
M.Qurbonalieva	
Taqiuddin Muhammad Avhadiy "Arafot-ul-oshiqin" va Mutribiy Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro" asarlarning qiyosiy tahlili	399
I.Eshonqulov	
Tazkiranavislar nuqtayi nazaridan Mirsiddiqxon Hashmatbuxoriy o'rnini anglash	405
H.Ne'matova	
Hoji Muinning "Kattaqorqon xotiralari" safarnomasi	413
X.A.Xaitov	
O'zbek adabiyotida lingvistika asosida kulgi uyg'otish masalasi	417
Samadi Nooria	
Maqollarning metodik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari	421
A.G.Sabirdinov	
Shuhrat she'rlariga bir nazar	427
S.Muminov, Z.Kamoliddinova	
Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida qo'llangan sinonimlarining lingvopoetikasiga doir.....	433

TILSHUNOSLIK

Sh.Iskandarova, D.Qo'ldasheva	
Furqat g'azallarida jonlantirishlarning ifodalanishi	439
Sh.A.Ganiyeva	
Frazeologik ma'no: kategorial va grammatik ma'no muammolari	443
D.Yuldasheva, S.Nishonova	
Maqollarda "bola" kontseptining ifodalanishi.....	447
M.Saminjonov	
Tilshunoslikda nutqiy janrlar va soha qasamlari masalasi.....	450
O.Latipov	
Rus, o'zbek, tojik va ingliz <i>tillarida "dog/it/sag"</i> zoonim so'zining konseptual talqini	454

SADRIDDIN AYNIY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI

ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ТУРКЕСТАНА В ТВОРЧЕСТВЕ САДРИДДИНА АЙНИ

ISSUES OF TURKESTAN HISTORY IN THE WORKS OF SADRIDDIN AINI

Temirov Farrux Umedovich¹¹Temirov Farrux Umedovich

– Buxoro davlat universiteti, t.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarixnavis adib, mashhur yozuvchi va jamoat arbobi Sadridin Ayniyning ilmiy-ijodiy faoliyati, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, madaniy hayot, mahalliy xalqning ahvoli, ilmiy-fandagi yutuq va muammolar, shuningdek, "Buxoro mang'it amirlari tarixi", "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar", "Tojik adabiyotidan namunalar", "Esdaliklar" kabi asarlarining mazmun-mohiyati, uning ushbu asarlarida Buxoro va Turkiston tarixi bo'yicha tilga olingan muhim tarixiy, ijtimoiy-madaniy masalalar, shuningdek, Turkiston tarixining dolzarb muammolari tarixiga bag'ishlab yozgan ilmiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy mavzudagi publisistik maqolalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье научно проанализирована научно-творческая деятельность историка, знаменитого писателя и общественного деятеля Садриддина Айни и изучены вопросы социально-экономической и культурной жизни Туркестана в конце XIX и начале XX века, положение местного населения, достижения и проблемы в научной деятельности края, а также освещена важность и сущность произведений данного автора "История мангытских эмиров Бухары", "Материалы к истории Бухарской революции", "Воспоминания" и статьи посвященные на актуальные проблемы истории Туркестана и Бухары.

Abstract

This article scientifically analyzes the scientific and creative activity of Sadridin Aini, historian, famous writer and public figure, and studies the issues of socio-economic and cultural life of Turkestan in the late XIX and early XX century, the situation of the local population, achievements and problems in the scientific activity of the region, and also highlights the importance and essence of the works of this author "History of the Bukhara emirs", "Materials for the history of Bukhara Revolution", "Memories" and articles devoted to relevant problems of Turkestan history.

Kalit so'zlar: Buxoro axbori, Maorif va o'qituvchi, Turk eli, Inqilob, Mehnatkashlar tovushi, Zarafshon, Hurriyat, Behbudiy, Mir Arab, Chil ustun, Chinnixonona, Ko'ksaroy, Ko'ktosh, madrasa.

Ключевые слова: Бухоро ахбори, Образование и учитель, Турк эли, революция, Голос трудолюбивых, Зарафшан, Хуррият, Бухбуди, Мир Араб, Чил устун, Чиннихона, Куksарай, Кукташ, медресе.

Key words: Buxoro axbori, education and teacher, Turk eli, revolution, Voice of the industrious, Zarafshan, Hurriyat, Bukhbudi, Mir Arab, Chil ustun, Chinnihona, Kuksaray, Kuktash, Madras.

KIRISH

Jahon miqyosida globallashuv asri bo'lmish XXI asrga kelib zamonaviy adabiyotga talaygina yangiliklar kiritilmoqda. Bu yangiliklar bir tomondan tabiiy rivojlanib, milliy adabiyot taraqqiyotining hissasi bo'lsa, ikkinchi tomondan Yevropa va jahon ta'siridagi o'zgarishlardir. Dunyo davlatlarida mashhur adiblarning asarlari jahon kutubxonalarining ma'naviy mulkiga aylandi. Shu nuqtai nazardan milliy adabiyotning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlarini yaxlit tadqiq etishga zarurat kuchaymoqda. Bu o'z navbatida har bir millatning tarixi, adabiyoti, ona tili, yozuvi, diniy e'tiqodi hamda umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlikda taraqqiy etish dinamikasiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar olib borish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Dunyoning ilmiy tadqiqot markazlarida turkistonlik mutafakkir allomalarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, XIX asrning oxiri – XX boshlarida musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti, jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda jadid namoyandalarning bu harakatda tutgan o'rni va ijtimoiy faoliyati o'rganilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sadridin Ayniyning ilmiy ijodiy faoliyati, tarixiy, ijtimoiy-madaniy qarashlari, uning ijodida Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-madaniy hayoti, tarixi masalalari ham alohida o'rinni egallaydi. Bu mavzu doirasi keng va dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

TARIX

1. Buxoro amirligi davrida yozilgan asarlar
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sadriddin Ayniy (1878-1954) o'zbek hamda tojik adabiyoti va tarixi rivojiga katta hissa qo'shgan zukko olim va ma'rifatparvar adibdir. S.Ayniy o'zining qariyb oltmish yillik ilmiy-ijodiy faoliyati davomida o'zidan boy madaniy va ma'naviy meros qoldirdi. Uning ilmiy merosi ilm va ma'rifat ixlosmandlari uchun o'ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

XX asrning boshlarida Turkiston ma'rifatparvarlari va taraqqiyparvarlari tomonidan nashr etilgan "Shu'lai inqilob", ("Inqilob shu'lasi"), "Inqilob", "Buxoro axbori", "Bolalar yo'ldoshi" "Maorif va o'qituvchi" va "Turk eli", "Zarafshon", "Mehnatkashlar tovushi" kabi o'sha davrdagi ijtimoiy – ma'rifiy va adabiy jurnal va gazetalarda S.Ayniy o'zining tarixiy, ilmiy va adabiy yo'nalishdagi bir qancha maqolalari bilan qatnashib turgan. Muallif ushbu mahalliy matbuot sahifalarida, ayniqsa Turkiston tarixining dolzarb muammolari tarixiga bag'ishlagan ilmiy, tarixiy yo'nalishda yozgan maqolalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimning "Turkiston boyligi" nomli maqolasi diqqatga sazovor bo'lib, unda Turkiston o'lka sanoatidagi qoloqlik, rivojlangan mamlakatlar qatoridan orqada qolayotganligi, mahalliy xalqning iqtisodiy va ijtimoiy muammolari tahlil va tanqid etiladi. Turkistonda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida qaraganligini ko'rish mumkin. Ayniy Turkiston boyligini masalasiga bag'ishlangan ushbu maqolasida o'lkadagi yer osti konlari xususida so'z yuritib, "Chet millat olimlarining izlab topg'onlariga qarag'anda bizam Turkistonda tosh ko'mir, temir, kumush, oltun, yer moyi (neft) va boshqa har xil ma'danlar bor ekan. Amriko xalqi, nemis va inglizlar shul ma'danlar orqasida butun yer yuzinda eng boy odamlardan bo'lg'on holda, bizlar faqir yashaymiz", degan fikrlari bilan mamlakatda mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayotganligini tanqid qilgan.

Tarixnavis olim buning birinchi sababini xalqning zamonaviy bilimlardan bexabarligida, ikkinchisi o'lkadagi tadbirkor boylarda birlik va hamkorlikni yo'qligida, deb biladi. Muallif bu holatdan chiqib ketish yo'llarini qidirib, millatni birlashishga va davlat boshqaruvini o'z qo'llariga olishga da'vat qilgan. Har kim o'z qobiliyati yetgan ish bilan shug'ullanishi kerakligini uqtirib, "Diniy ulamolimiz dini mubinimizni obod qilmoq yo'lida quvvatlarini sarf qilib, siyosat va iqtisodoshlari bo'lg'on dunyo yumushlarini o'z ahllariga topshirsalar, yordam qilsalar va dunyo ishlarimizni ahllari bo'lg'on muhtaram zotlarimiz dunyoviy yumushlarimizni isloh qilishga jiddiyat ila kirishsalar, inshoolloh tezlikda xar xil maktab va hunarlar ochsalar bizlar darhaqiqat kurrai arzini mushar qilg'on bo'lurdik", deb yozadi Ayniy.

Shuningdek, Ayniy zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali sanoatni yanada rivojlantirish va buning natijasida iqtisodiy inqirozni bartaraf qilish mumkinligini ta'kidlab, "Agar ishlarimizni shul usulda qo'ysak bir zamon kelurki, Turkiston bir bo'ston holig'a kelur, zovudlar, fabrikalar, temir yo'llar va boshqa madaniy korxonlar ila to'la bo'ludur", deya orzu qilgan. Adibning fikricha, agar mavjud yer osti boyligini qazib chiqarib, uni qayta yo'lga qo'yilsa, birinchidan, o'lka sanoati rivojlanadi va xom ashyoni chetga chiqib ketish oldi olinadi, natijada olinadigan daromad miqdori oshadi. Ikkinchidan, ehtiyoj uchun kerakli bo'lg'on barcha mahsulotlarni shu yerni o'zida ishlab chiqarish mumkin bo'lib, Turkiston boshqa mamlakatlarga iqtisodiy qaramlikdan xalos bo'ladi. Uchinchidan, davlat xom ashyo bazasi emas, balki, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi mamlakatga aylanib, tashki savdo o'sadi. Buning natijasida turkistonliklarni dunyodagi eng boy xalqqa aylantiradi. Ko'rinib turibdiki, S.Ayniy o'z vaqtida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish orqali mamlakatni rivojlantirish va uni siyosiy, iqtisodiy qaramlikdan olib chiqish mumkinligini anglagan edi.

Ma'lumki, Turkiston jadidlarining otasi sifatida nom qozongan Behbudiy, o'z davrida ko'pgina ma'rifat va ma'naviyat vakillariga ustozlik qilgan, ularni qo'llab-quvvatlagan mashhur dramaturg, shoir, notiq, noshir va ma'rifatparvar adib edi. Ayniy Behbudiyning shaxsiyati, ilmiy merosi, ma'rifat va madaniyat sohasida olib borgan samarali ishlari to'g'risida XX – asrning boshlarida o'nga yaqin ilmiy, adabiy va tarixiy maqolalari bilan mahalliy matbuotda chiqqan edi. Uning maqolalarini kuzatar ekansiz, Behbudiy haqidagi bir-birini takrorlamaydigan qimmatli

ma'lumotlarni uchratishingiz mumkin. Agarda, S.Ayniyning Behbudiy haqidagi maqolalarini bir tizimga keltirilsa, 30 – 40 sahifalik ixchamgina bir risolani tashkil etishi mumkin.

S.Ayniy “Mahmudxo‘ja Behbudiyning qisqacha tarjimai holi” unvoni ostida e‘lon qilgan maqolasida “Behbudiy afandi 1291-yil hijriy (milodiy 1875 y) zulhijja oyining o‘nida (19 yanvar) oqshomda tug‘ilgan” deb, aniq ko‘rsatib o‘tgan. Adib o‘zining “Behbudiy hazratlari to‘g‘risida xotiralirim” nomli maqolasida, u haqdagi taassurotlari to‘g‘risida yozib: “Behbudiy hazratlari ko‘rinishda g‘oyat mahobatlik va salobatlik edi. Ahvolig‘a voqif bo‘lmag‘an kimsa, mutakabbur deb, gumon qilur edi. Lekin, haqiqatda muloyim suhbatlik, takallufsiz bir odam edi, o‘z moli haqida bo‘lsin, xalq moli bo‘lsin, iqtisodg‘a ko‘p rioya qilar va ijtimoiy ahvolimizning tuzulishi uchun iqtisodg‘a rioya qilishni birinchi shartlardan bilar edi”. Shuningdek, S.Ayniy Behbudiyning o‘limiga bag‘ishlab ikkita she‘r ham yozgan: “Behbudiy ruhig‘a ithof”, “Behbudiy afandini esga tushurib, qatl va qatlgohiga xitoban”. Ayniy hatto bir she‘rining yozilgan sanasini “1920, IV”, deb aniq qayd etgan.

Behbudiyning Qarshi shahri 1919-yil 25-martda fojiali o‘limidan keyin, uning maslakdoshlari va izdoshlari tomonidan o‘z ustozlariga bag‘ishlab bir necha maqolalar e‘lon qilingan. S.Ayniy ham “Mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy va rafiqlarining o‘chlari olindi”, “Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida”, “Mufti Mahmudxo‘jaga bag‘ishlab”, “Musibati Mahmudxo‘ja va rafiqonash” (“Mahmudxo‘ja va rafiqlarining musibati”) va “Motami buzurgi umum” (“Buyuk umum motami”) kabi maqolalarida, Behbudiyning qanday sirli o‘lim topganligi to‘g‘risida muhim bo‘lgan ma‘lumotlarni keltirib o‘tadi.

“Buxoro axbori” gazetasining 1923-yil 3-oktyabr, 209-sonida S.Ayniy “Musofir” taxallusida yozgan “Mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy va rafiqlarining o‘chlari olindi” maqolasida, quyidagi ma‘lumotlarni keltiradi: “Turkiston yosh fikrlilarining otasi bo‘lg‘on samarqandlik mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy afandi o‘zining rafiqlari Muhammadqul va Mardonqul o‘rtoqlar bilan birgalikda 1919-yil mart oyida zolim amirning qonxo‘r beklari tarafidan Qarshi shahrida o‘ldirilib, butun Turkiston jadid va ma‘orifparvarlarini ulug‘ va qattig‘ musibatga uchratqon edi. Ushbu musibat ta‘siri bilan 1920-yil aprel oyida Samarqand shahrida umum xalq tarafidan amirga qarshi katta namoyish hozirlanib, zolimlarga jazo berilishi talab qiling‘on edi”.

Sayniyning 1923-yil avgust va sentyabr oylarida, BXSRRning matbuot organi bo‘lgan “Buxoro axbori” gazetasida bosilgan uchta maqolasi ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. BXSRR hukumatining o‘zbek tilidagi yagona, doimiy matbuot organi bo‘lgan “Buxoro axbori” (keyinchalik “Ozod Buxoro”) gazetasida S.Ayniy 1923-yilda “Ko‘rsunlar va eshitsunlar”, “Sho‘rolar hukumati muomalasi”, “Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat” nomidagi maqolalarini e‘lon qilgan. Yuqoridagi maqolalar tavsif va tadqiqotga muhtojligi shundaki, avvalo, ularning matni barcha ilmiy ijodiy jamoatchilikka ma‘lum emas. Ikkinchidan esa, adib 1920-1923 yillardagi Buxoroda kechgan tarixiy va siyosiy voqealarning jonli guvohi sifatida bugungi avlod uchun qimmatli ma‘lumotlarni keltiradi.

Adibning “Ko‘rsunlar va eshitsunlar” nomli maqolasida 1922-1923 yillarda BXSRR hukumatining Buxoro tarixiy obidalarini ta‘mirlash sohasidagi say harakatlari bayon qilinadi. Muallifning ma‘lumoticha, hukumat qarori bilan Minorai Kalonning 1920-yil sentyabrdagi sho‘ro to‘ntarishidan keyin shikastlangan joylarini tuzatish uchun ustalar va mardikorlar ikki yil ta‘mirlash ishlarini olib borishgan. Yarim vayrona holatida kelgan boshqa tarixiy obidalarni qayta tiklash uchun maxsus reja tuzilib, ko‘p miqdorda qurilish ashyolari: g‘isht, ohak, ganch va yog‘och keltirilgan.

Ayniy Buxoro respublikasining F.Xo‘jayev boshchiligidagi yosh hukumatga qilingan tuhmatlarning asossizligini isboti sifatida ular qilayotgan savobtalab ishlarni “ko‘zi bor ko‘rsin, qulog‘i bor eshitsun” – deb maqolaga nuqta qo‘yadi. Ayniy Buxoroning so‘nggi amiri Said Olimxon hukmronligi davrida (1910-1920) jabr ko‘rgan, uning zindonida tutqunlikda bo‘lib, alamini tortgan edi. Tan jazosini olgan jadid vakillaridan biri edi. “Buxoro jadidlari va inqilobchilariga murojaat” maqolasi esa, hajmi jihatidan oldingi ikki maqoladan katta bo‘lib, muallif unda eng dolzarb masalani ko‘tarib chiqadi. Ya‘ni Buxoro jadidlarining kurashlar tarixi va faoliyatini kelajak avlodlarga yetkazish masalasi haqida bahs yuritadi.

Ma‘lumki, Shayboniylar sulolasining mashhur xonlaridan biri Ubaydullaxon (hukmronlik davri: 1533-1539) davrida qurilgan Mir Arab madrasasi (1535-1536 y) Buxoroda o‘z davrida mashhur va ma‘lum ilm maskanlaridan biri bo‘lgan. S.Ayniy ham 1890 – 1891 yillar davomida ushbu madrasada ilm-ma‘rifatni o‘rganib, turli fanlardan tahsil olgan. Olim keyinchalik bu madrasa haqidagi xotiralari, Buxoroyi sharif ma‘naviy va madaniy tarixida tutgan o‘rni va uning ilmiy saviyasi

TARIX

to'g'risida "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1927-yil 5-sonida arab alifbosida va eski o'zbek tilida "Mir Arab imoratlari" nomli maqolasini chop etgan. Ayniyning masalaga xolisona, mafkuraviy ta'sirlarsiz yondashgani va Mir Arab shaxsiyati va u qurdirgan madrasaning diniy ilm o'choqlaridan biri bo'lganligini tarixiy asarlar va hujjatlarga suyanib ochib berganligi, bu tadqiqotning o'zbek, rus va tojik tillaridagi to'la asarlar to'plamida nashr etimaganligiga sabab bo'lgan bo'lsa kerak.

S.Ayniyning bu tarixiy tadqiqoti Zaynuddin Vosifiyning "Badoye' ul – vaqoye" asariga hamda, muallif ta'kidiga ko'ra, Mir Arab avlodlari qo'lida saqlangan maqomotga asoslangan. Shuni ham aytib o'tish joizki, Ayniy Zaynuddin Vosifiy merosiga murojaat qilgan dastlabki tadqiqotchilardandir. Jumladan, Ayniy maqolasida shunday yozadi:

"Mir Arab imoratlarini yozishdan burun uning tarjima holidan qisqacha ma'lumot berish kerak. Mir Arabning oti mir Abdullo bo'lib, Yaman viloyatiga qarashlik Xuzramavt shahrida tug'ilgandir. 22 yasharlik chog'ida o'z yurti Arabistondan Turkiston sari hijrat qilg'on. Munda Samarqandda Xo'ja Ahror halqasiga kirgan. Xo'ja Ahror o'lgandan keyin Sayramga borib yerlashgandir. Mir Arabning shayboniylar davrida shuhrati chiqib, ushbu xonadondan bo'lib, Buxoro 918-948 hijriyda hukm surgan Ubaydullaxondan ko'p himmat ko'rgan va uning davlat, soyasida ko'p molu mulkka ega bo'lg'ondir". Umuman, ma'rifatparvar olimning mazkur tadqiqoti keng ilmiy jamoatchilikka kam ma'lum bo'lganligi va S.Ayniy ilmiy-adabiy merosining kam ma'lum bo'lgan qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Ayniyning publisistik ijodida Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan ilmiy-tarixiy maqolalari ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonda ilmiy temurshunoslikka qo'l urilgan dastlabki ilmiy ishlardan hisoblanadi. Ayniy o'zining "Amir Temur binolaridan. Bibixonim xarobasi ila musohaba", "Samarqand shahri", "Eski osorlar. Chilustun, Ko'ksaroy, Chinnixonona va Ko'ktosh", "Tarixiy tasxeh", shuningdek, "Ulug'bek rasadxonasi" va "Tarixiy yodgorliklarning buzilib ketilishiga yo'l qo'yilmasin" kabi maqolalarida Samarqand shaharining tarixiy-me'moriy yodgorliklariga va topografiyasiga keng to'xtaladi.

Muallif Amir Temur va temuriylar davrida Samarqandda yuz bergan o'zgarishlar, obodonchilik ishlari, barpo etilgan me'moriy obidalar, maqbaralar ta'rifiga keng o'rin ajratgan. Tasvir mazmunidan bu ishlarning barchasi yoki muayyan qismi Amir Temur xizmatlari mahsuli ekanligi, sohibqiron hokimiyat tepasiga kelgunga qadar Samarqand xaroba holga tushib qolganligi, Amir Temur esa shaharning aksar qismini qayta tiklashga jazm etganligi to'g'risidagi fikrlarni ilg'ab olish qiyin emas. Shu bilan birga Ayniy Amir Temurning shon-shavkatiga hech shubha qilmagan holda, u qurdirgan imoratlarning tarixiy-badiiy qirralarini ochib beradi. Go'ri Amir kompleksining tavsifini borayotganda uning Amir Temur qudratiga mos va muvofiq ekanligini ochiq yozadi.

S.Ayniy "Samarqand shahri" nomli maqolasida, Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatini yuqori baholab uning tomonidan Samarqand, Shahrisabz, Turkistonda qurilgan monumental obidalarining benazirligini, Amir Temurdan keyin musulmon sharqida bular darajasidagi badiiy mukammal binolar qurilmaganligini alohida ta'kidlaydi. Bibixonim masjidi esa Amir Temur shon-shuhratining cho'qqisi sifatida e'tirof etiladi. "Temurning katta imoratlaridan biri, Xonim (Bibixonim – F.T) me'moriy yodgorligidir kim bugungacha xarobasi ko'zlarni qamashtiradi, Xonim masjidi 801 hijriyda (1399) boshlanib, 806 hijriyda (1405) bitdi. Bu binoning ichidagi ayvonlari pishiq g'isht bilan yopilib, marmar toshdan yo'nilgan 80 ustun ustiga solingan edi. Bobirning rivoyatiga ko'ra bu binoning toshlarini Hindistondan keltirilgan sangtaroshlar yo'ngganlar. Shohi zinda mozoridagi butun dunyo ko'zini o'z nafasatiga tortgan koshinkorlik gumbazlar Temur zamonida solingandir".

Shuningdek, adib Amir Temurning suyuqli nebarasi bo'lgan Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449, hukmronlik davri: 1409 – 1449) tomonidan Samarqand va Buxoroda bino qilingan muhtasham binolarni ham sanab o'tadi. S.Ayniy "Ulug'bek rasadxonasi" nomli maqolasida, o'z davrida mashhur astronomiya maktabini yaratgan Mirzo Ulug'bek davridagi ilm-fan taraqqiyoti, uning atrofida buyuk olimlarning faoliyat ko'rsatganligi, 1424 – 1428 yillarda qurilgan rasadxona, uning tarixi va ilmiy faoliyati, Amir Temurning munosib davomchisi sifatida ilm-fan ahliga g'amxo'rlik qilganligi va boshqalar to'g'risida muhim bo'lgan ma'lumotlarni keltirib o'tadi. S.Ayniyning "Eski osorlar. Chil ustun, Ko'ksaroy, Chinnixonona va Ko'ktosh" nomli tarixiy tadqiqotida Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand shaharining har jihatdan rivojlanganligi, qo'pgina tarixiy obidalar Chil ustun, Chinnixonona, Ko'ksaroy va Ko'ktosh kabi o'z davrining mashhur yodgorliklari qurilganligini aytadi.

Amir Temur Samarqand shahrini o'z davlatining poytaxti etib belgilaganidan keyin Movarounnahr o'lkasi ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan gullab-yashnaganligini e'tirof etadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, S.Ayniy o'zining yuqorida tilga olingan publisistik maqolalarida Turkiston va O'zbekiston tarixining muhim bo'lgan tarixiy masalalarini o'rganib, jiddiy tadqiq etib, uning tarixiy o'tmishining naqadar boyligi, buyuk mutafakkirlarning yurti ekanligi, bu tarixni asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazish dolzarbligini alohida ta'kidlab o'tadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Айний. С. Туркистон бойлиги. // Турк эли. 1917, 4 октябрь. (Айни С. *Богатство Туркестана*. //Турк эли. 1917, 4 октябрь. / Aini S. *The Wealth of Turkestan*. //Turk eli. 1917, 4 October)
2. Айний С. Бехбудий ҳазратлари тўғрисида хотираларим. // Зарафшон. 1922 йил, 32-сон, 25 март. (Айни С. *Мои воспоминания о его светлости Бехбуди*. // *Зерафшан*. 1922 год, №32, 25 марта. / Aini S. *My recollections of his lordship Behbudi*. // *Zerafshan*. 1922, №32, March 25.)
3. Айний С. Курсунлар ва эшитсунлар. // Бухоро ахбори, 1923 йил, № 210, 5 август. (Айни С. *Пусть видят и слышат*. // *Бухарские известия*, 1923 год, №210, 5 августа. / Aini S. *Let them see and hear*. // *Bukhara News*, 1923, # 210, 5 August.)
4. Айний С. Шўролар ҳукумати муомаласи. // Бухоро ахбори, 1923 йил № 21, 8 август. (Айни С. *Отношения Советского правительства*. // *Бухарские известия*, 1923 год, №21, 8 августа. / Aini S. *Relations of the Soviet Government*. // *Bukharskie izvestiya*, 1923, #21, 8 August.)
5. Айний С. Бухоро жадидлари ва инқилобчиларига мурожаат. // Бухоро ахбори. 1923, № 214, 21 август. (Айни С. *обращение бухарским жадидам и революционерам*. // *Бухарские известия*, 1923, №214, 21 августа. / Aini S. *Appeal to the Bukhara Jadids and revolutionaries*. // *Bukhara News*, 1923, #214, 21 August.)
6. Айний С. Мир Араб иморатлари. // Маориф ва ўқитувчи 1927, № 5. 35. (Айни С. *Постройки Мир Араб*. // *Образование и учитель*, 1927, №5. 35. / Aini S. *Buildings of Mir Arab*. // *Education and Teacher*, 1927, #5. 35.)
7. Айний С. Амир Темур бинолариндан. Бибиҳоним харобаси ила мусоҳаба. // Болалар йўлдоши. 1919, № 2, 23 май. – Б. 3. (Айни С. *Из зданий Амира Темура*. *Собеседование с руинами Бибиханум*. // *Болалар йулдаши*. 1919. №2, 23 мая. –С.3. / Aini S. *From the buildings of Amir Temur*. *Interview with Bibihanum ruins*. // *Bolalar yuldashi*. 1919. №2, 23 May. –С.3.)
8. Айний С. Улугбек расадхонаси. // Ленин йўли. 1948, 9 июль (Айни С. *Обсерватория Улугбека*. // *Путь Ленина*. 1948, 9 июля / Aini S. *Ulugbek Observatory*. // *Put Lenin*. 1948, 9 July.)
9. Айний С. Самарқанд шаҳри. // Маориф ва ўқитувчи, 1928, № 10. – Б. 47 – 50. (Айни С. *Город Самарканд*. // *Образование и учитель*, 1928, №10. –С.47-50. / Aini S. *The city of Samarkand*. // *Education and Teacher*, 1928, № 10. –С.47-50.)
10. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. (тўлдирилган ва тузатилган 3-нашри). Т: Маънавият 2006. – Б. 256-25 (*Махмудходжа Бехбуди*. *Сочинения*. (дополненное и исправленное 3-издание). Т.: Маънавият, 2006. – С.256-25 / *Mahmudkhoja Behbudi*. *Essays*. (3 editions, updated and corrected). Т.: *Manaviyat*, 2006. -С.256-25)
11. Ҳожи Муин. Муфти Маҳмудхўжа Бехбудий ҳазратларининг қандай шаҳид бўлганлиги ва анинг томонидан ёзилган васиятнома. // Инқилоб. 1922 йил, № 1, 7 январь. (*Ходжи Муин*. *Жертвование и Муфти Махмудходжи Бехбуди и написанное ими завещание*. // *Революция*. 1922 год, №1, 7 января. / *Hoji Muin*. *The sacrifice and Mufti of Mahmudkhoja Behbudi and the will they wrote*. // *Revolution*. 1922, No. 1, January 7.)
12. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Т: Ўзбекистон, 2008. – Б. 56. (Каримов Н. *Пейзаж литературы XX века*. Т.: *Узбекистан*, 2008. –С.56 / *Karimov N*. *The picture of literature of XX century*. Т.: *Uzbekistan*, 2008. -С.56.)